

VIZANTIYA SHARQ VA G'ARB MINTAQALARINING OLTIN KO'PRIGI

Nurmurotova Laylo Muzaffar qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti tarix
yo'nalishi 2 bosqich talabasi laylonurmurotova466@gmail.com*

Annotatsiya: *Vizantiya XII asrning oxiriga qadar Yevropaning madaniyati eng yuksak rivojlangan davlati hisoblanadi. Mazkur maqolada Vizantiya imperiyasining vujudga kelishi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, IV-IX asrlarda Vizantiya madaniyati va shaharlari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, maqolada Vizantiyada davlat va cherkov ittifoqining G'arbiy Rimdan farqlari ko'rib chiqilib, cherkovning ma'daniyatga ta'siri haqida fikr yuritiladi.*

Tayanch tushunchalar: *Vizantiya, imperiya, shaharlar, Rim papasi, xristian cherkovi, Eparch kitobi, Kanstantinopol.*

Аннотация: *До конца XII века Византия считалась самым высокоразвитым государством Европы в культурном отношении. В данной статье приводится информация о возникновении Византийской империи и её социально-экономическом положении, а также о культуре и городах Византии в IV-IX веках. Кроме того, в статье рассматриваются различия между союзом государства и церкви в Византии и в Западной Римской империи, а также обсуждается влияние церкви на культуру.*

Ключевые понятия: *Византия, империя, города, римский папа, христианская церковь, "Книга епарха", Константинополь.*

Annotation: *Until the end of the 12th century, Byzantium was considered the most culturally advanced state in Europe. This article provides information about the formation of the Byzantine Empire and its socio-economic condition, as well as about Byzantine culture and cities during the 4th-9th centuries. In addition, the article examines the differences between the alliance of the state and the church in Byzantium and in the Western Roman Empire, and discusses the influence of the church on culture.*

Key terms: *Byzantium, empire, cities, Pope of Rome, Christian church, Book of the Eparch, Constantinople.*

G'arbiy Rim imperiyasi German qabilalari tomonidan istilo qilingandan keyin ham Rim imperiyasining Sharqiy qismi yana uzoq vaqt hukm surdi. U hatto o'zini rasmiy suratda Rim imperiyasi deb atayverdi. Latin tili yana uzoq vaqtgacha Sharqiy imperiyaning davlat tili bolib qoldi lekin Sharqda xalq grek tilida gaplashardi "Rim imperiyasi" degan nom bora-bora yo'qolib "Vizantiya imperiyasi" degan nom yuritila boshladi. Ba'zi olimlar xuddi shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb xisoblaydilar. Lekin tarixchilarning ko'pchiligi Vizantiya imperiyasi 395 yilda ya'ni Feodosiy I o'lgach imperiya uning o'gillari o'rtasida taqsimlanib, sharqiy yarmi Kanstantinopol shahri bilan birga Arkadiyga o'tgan vaqtda tuzilgan deb hisoblanadi. Bolqon yarim orolidan va Egey dengizidagi kopdan kop orollardan tashqari, Vizantiya imperiyasiga yana Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Misr, Mesopotamiya va Zakavkazening bir qismi Qrimning janubiy qirg'oqlari kirar edi. Imperiyaning sharqiy qismi

g'arbiy qismiga qaraganda ancha mustahkam bolib chiqqan edi, buning asosiy sababi shuki undagi iqtisodiy munosabatlar g'arbiy qismidagiga qaraganda ancha taraqqiy topgan va ancha mustahkam edi. Bu yerda Misrdagi Aleksandriya, Suriyadagi Antioxiya, Kichik Osiyodagi Smirna va Efes, Bolqon yarim orolidagi Konstantinopol va Fessalonika kabi rivoj topgan savdo sotiq markazlari bo'rdi. Osiyo sharqi bilan olib borilgan qizg'in savdo ishlari uzilmadi, balki xatto kuchaydi, bu savdo Osiyoda III asrda kuchli yangi fors podsholigi - Sosoniylar vujudga kelganidan song ayniqsa kuchaydi. Sharqiy Rim imperiyasida quldorlik tuzumining o'zi ham G'arbiy imperiyadagidek keskin tushkunlikka uchramadi. Buning sababi avvalo shuki, imperiyaning sharqiy viloyatlarida ayniqsa qishloq xojaligida quldorlik g'arbdagidek katta ro'l o'ynamadi. Sharq ekonomikasida qullar bilan bir qatorda qul bo'lmagan elementlar yani shaharlardagi erkin hunarmandlar va qishloqlardagi jamoachi dehqonlar katta o'rin tutar edi. Bu jamoachi dehqonlar davlat dehqonlari bo'la turib qaramlik holatiga tushib qolgan bo'lsalar-da har xolda ularning o'z yer uchastkalari, shahsiy ho'jaligi bor edi, shunday qilib, ular qullardan anchagina farq qilar edilar. Xiyla kop sonli mustaqil dehqonlar qisman qadimiy ibtidoiy tuzumni saqlab qolgan bo'lib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida istiqomat qilar edilar. Ellinizm madaniyatining o'zi ham grek xalqining Yangi Sharqdagi turli xalqlar bilan kop asrlar davomida qilgan aloqasining natijasi bo'lib Vizantiyaning mustahkamligining malum darajada saqlanib turishiga imkon bergan sharoitlardan biri boldi⁹⁶ Shunday qilib Vizantiya rivojlanib bordi.

Vizantiya XII asr oxiriga qadar yevropaning madaniyati eng yuksak rivojlangan davlati bolib unda g'arbdagi singari madaniy ananalarning inqirozi kuzatilmaydi. Markazlangan davlat va koplak shaharlarning bolishi savodxonlik va madaniyatning malum darajasini talab etgan. Ilk o'rta asrlar Vizantiyasi marifiy hayotining hususiyatli jihati uning antic madaniy meros bilan uzviy bog'liqligidir. Rim imperiyasidan meros bolib qolgan boshqaruv mamuriyatiga, malumotli siyosiy arboblarga, huquqshunoslarga, diplomatlarga: saroy ibodatxonalarva mudofaa inshootlarini quradigan muxandis, memorlarga; xazinaga tushadigan daromatlarni hisoblaydigan, soliq va bojlarni aniqlab beradigan mirzalarga; imperatorlarning qudrati va donishmandligini ulug'lovchi rassomlar, notiqalar, adiblarga ehtiyoj maorif va madaniyat rivojlanishi darajasini belgilagan.

Madaniyatning taqdiri mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Vizantiyada ham cherkov antik falsafaning eng ijobiy taraflarini olib o'z ehtiyojlariga moslashtirgan. Muximi, Vizantiya madaniyati insoniyat uchun yunon olimlari, shoirlari va tragediyalari mualliflarining bebaho asarlarini saqlab qolgan.

Vizantiya taraqqiyotining ilk asrlarida malum darajada yaxlit madaniyat tushunchasi bo'lmagan. Imperiyaning rang barang etnik tarkibini Misr rasmlari, Suriya naqshlari, Konstantinopol mozaikalari, Fessalonika freskalari aks ettirilib ularning barchasida kop asrlik mahalliy ananalar muxrangan edi. Yevropa va Osiyo chegarasida joylashgan vizantiya o'z zamondoshlari bo'lgan Sharq sivilizatsiyalarining ham kuchli tasirini sezadi. Antik sanat osoru atiqalari fors arab dunyolarining ijobiy tasiri Vizantiya sanatida betakror asarlar yaratilishiga turtki beradi.⁹⁷ Yuzlab yillar davomida Vizantiya O'rtayer dengisi havzasi va yaqin sharq

⁹⁶ Семенов. В. Ф. Урта асрлар тарихи. Педагогика институтлари учун. -Т.. Уктувчи. 1973

⁹⁷ Salimov T, O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Universitet", 2014-yil

madaniyatlari qorishadigan ulkan ustaxona vazifasini o'tab imperiya madaniyati va sanati o'z novbatida Yevropa va Osiyoning koplal xalqlari taraqqiyotiga ijobiy tasir o'tkazadi

Vizantiya madaniyatining taraqqiyoti IV-VII asrlarda xristianlikning va antic merosning o'zaro kurashi sharoitida bo'ladi. Cherkov tazyiqi ostida kitoblar yondirilgan antik falsafa fan va adabiyot o'qitilgan maktab va universitetlar yopilgan; Iskandariya ko'chalarida rohib olima Ipatiyani tilka pora qilganlar. Vizantiya sxolastikasi asoschisi Damashqlik Ioann Aristotelga tayanib xristianlik g'oyalarini malum tizimga soladi, "falsafa ilohiyot xizmatchisi" degan shiorni ilgari suradi Xristianlik nazariyotchilari antik davr mualliflari asarlarini o'rganib o'z asarlarini peshlashar xristianlik uchun ularni muhum jihatlarini o'zlashtirar edilar. Budga qarshi kurash va pavlikianlikning yuksalishi davrida rasmiy cherkov g'oyalarini yuksalishida unga qarshi ijtimoiy fikrning shakllanishida xalq ommasining ro'li ham oshadi. O'z g'oyalarini mustahkamlashga cherkov barcha imkoniyatlarini qaratdi. Ruhoniylar savodxonligini oshirishga harakat qiladi. Kanstantinopolda IX asr o'rtalarida antik maktablarga o'xshash Magnavr Oliy maktabi ochiladi. IX-XI asrlarda Vizantiya madaniyati aksari yunon tilli xalq madaniyatiga aylanadi. Arablarga qarshi kurashda erkin dehqonlar toifasi asosiy o'rin tutib, bu voqea xalq qo'shiqlarida ham o'z aksini topgan. Ayni ana shu urushlar "Dagenis Akrit" dostoni asosini tashkil etadi. Adabiyotda shaharliklarning amaldor-zodagonlardan noroziligi, ularga qarshi kurash jarayonlari ham o'z aksini topgan. XII asrda bitilgan "Tamarion" hajviy asarida do'zaxga sayohat va mayitlar bilan ajoyib uchrashuvlar asnosida ikkiyuzlamachilik, ahmoqlik, o'ziga bino qo'yish, olchoqlik kabi illatlar ustidan kulingan. Antik madaniyatga qiziqish kuchayib boradi. Vizantiyada hatto oliy cherkov amaldorlari yozishmalarida antik mualliflar asarlaridan ilovalar keltirib ularda siymolar ramzlardan allegoriyalardan foydalanganlar. Vizantiyada antik davrda yaratilgan ilmiy bilimlarni tartiblashga harakat boshlangan. Tibbiyot va qishloq xojaligidan qurama ensiklopediyalar tuziladi. Ilgarigi mavjud voqealarni Xudoning hohish-irodasi bilan izohlovchi tarixiy asarlardan farqliroq tarixchilar voqealarning bir-biriga aloqadorligini ratsional izohlashga urina boshlaydilar. Faylasuf, tarixchi, notiq, qomusiy bilimlar egasi Mixail Psellning "Xronografiya"si XI asr tarixshunosligining ajoyib namunasidir.⁹⁸ Ushbu davrda cherkovlarning madaniyatga tasiri qanchalik kuchli bolganligini ko'rishimiz mumkun.

Ayo Sofiya ibodatxonasi singari mashhur yodgorlik qurilishida o'z ifodasini topgan yuksak arxitektura san'ati Vizantiyaning umumiy madaniyati o'sha davrda qanday yuksak bo'lganligini ko'rsatuvchi dalillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bunday monumental badiiy yodgorlik qurilganligining o'zi mohir usta, matematiklar, muhandislar, rassomlar bor bo'lganligini ko'rsatadi. Vizantiyaning VI asrdagi gumanitar asarlar yaratganligini bir qancha yirik olim va yozuvchilarning nomlaridan bilish mumkun ularning asarlari bizning zamonamizgacha yetib keldi. Yustinian vaqtidagi yirik tarixchi Prokopiyy Kesariyskiy buning misolidir. Prokopiyy Yustinianning podsholik qilishiga oid bir qancha tarixiy asarlar yaratdi, jumladan, "Urushlar tarixi", "Qurilishlar", "Sirli tarix" kabi asarlar yaratdi. Prokopiyy asarlarida qimmatli materiallar to'plangan unda Vizantiyaning bir o'zining emas hatto uning yon qo'shnilarini, jumladan, VI asrdagi slavyanlarni, ostgotlarni, vandallar va boshqalarni ham ta'rif- tavsuf lab bergan. O'zining rasmiyat uchun yozgan asarlarida Yustinianning siyosatini

⁹⁸История Византии. Т. 1-3. М., 1967

to'la ma'qullab uni sharaflagan. Prokopiý o'zining "Sirli tarix"ida aksincha podsholik davrining sirli, qorong'u tomonlarini ochib tashlagani, ayniqsa Yustinian siyosati natijasida soliqlarning og'irlashib, xalq ommasining tobora qashshoqlashib ketganligini qayd qilgan.

Vizantiyaning VI asrda o'tgan yana bir yirik tarixchisi Agafiy edi. Uning "Yustinianning podsholik qilishi" degan asari Prokopiý asarlariga ancha muhim qo'shimchalar kiritib, ularni to'ldiradi, tuzatadi, o'rni bilan uning bergan ma'lumotlarini tasdiqlaydi. Vizantiyaning VI asrdagi eng yirik olimlari orasida aniq fanlar bilan shug'ullangan tibbiyot olimi Aleksandr Trallskiy va Pavel Eginskiyni, matematik-mexaniklardan Isidor Miletskiy va Anfimiy Trallskiy geograflardan Kozma Indikoplavtni ko'rsatish mumkin, Indikoplavt geografik noaniqliklar anchagina ko'p bo'lishiga qaramay, u Afrika va Hindiston, Qizil dengizi va Hind okeani to'g'risida bir qancha qimmatli materiallarni o'z ichiga olgan. Uning koinotga nisbatan geotsentrik qarashlari o'rta asr kishilarining geografiya to'g'risidagi tasavvurlariga juda katta tasir ko'rsatgan. Vizantiya o'zining ko'p asrli hayoti davrida boy va rang-barang madaniyat yaratdi, bu madaniyat janubiy slavyanlarga va Rusga katta tasir korsatadi. VI asrdayoq o'zining ilk namunalarini bergan Vizantiya arxitekturasida keying asrlarda ham rivojlanishda davom etib, monumental Vizantiya ibodatxonalari tipini bunyod qildiki, bu tipdagi ibodatxona namunalari XI asrdagi qadimgi rus yodgorliklari uchun eng yaxshi namuna bolib xizmat qilgandir. Shuni aytish kerakki, Vizantiyada qurilish texnikasi: g'isht qilish, juda ajoyib ohak qorishmasi tayyorlash, g'isht terish san'ati, manomental qubbalar, ulug'vor gumbazlar va shu kabi yaratish texnikasi o'z zamonasi uchun juda yuksak darajada edi.

Vizantiyada IX-XI asrlarda rassomlik-devorga rasm solish koshinkorlik tasvirlari ham zo'r berib rivojlana bordi; rassomlikning bu shakllari Vizantiyada tobora tus olib qat'iylashib bordi. Vizantiyada badiiy hunarmandchilik ham yuksak rivoj topdi. Qimmatbaho ipak gazlama kimxob gilam to'qish keng rivojlangan; zargarlik badiiy kulolchilik shisha buyumlar yasash, sir tayyorlash ayniqsa taraqqiy etgan edi. Vizantiya har xil qurol-yarog' ishlash kemasozlik konchilik vahokazolar bilan don chiqargan.⁹⁹ Vizantiya o'zining kop asrli hayoti davrida boy va rang barang madaniyat yaratdi IX-XI asrlarda Vizantiyada rassomlik, hunarmadchilik va fan sohasida ham ko'zga ko'rinarli ishlar olib borildi, jumladan, ushbu davr Vizantiya olimlari qadimgi dunyo klassik avtorlarining asarlarini muttasil o'rganib, to'plab, ular asosida asarlar yaratdi. Bundan tashqari Vizantiyada yilnoma yozish ham juda rivoj topdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Vizantiya o'rta asrlar davridagi eng madaniyat cho'qqisiga chiqqan va qudratli har tomonlama boshqa davlatlardan yuksak jihatlari bilan ajralib turadigan davlat deya ayta olishimiz mumkin. Vizantiya madaniyati boshqa hududlarga tarqalishi bu Yevropa xalqlarining, Yaqin Sharq xalqlarining yanada rivojlanishiga olib keladi. Vizantiya o'zining maorifi va madaniyati bilan boshqa xalqlarning tarixiga tasir korsatadi. Sharq va G'arb mintaqalaridagi shaharlarning davlatlarning yozuvlarning muqaddam va muntazam hamda dastavval shakllanishining muhim poydevori boldi, yani Kichik Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa, Shimoliy Afrikadagi sivilizatsiyalarning yoyilishiga sabab bo'ldi va bu hududlarning uzilmas halqasiga aylandi. Sharq va G'arb davlatlarini bog'lab turuvchi "Oltin ko'prik" sifatida tarixda nom qoldirdi. Ta'kidlash joizki, bugungi kundagi

⁹⁹Abduazimov A. Kamolov J. Jahon tarix. Toshkent. 2023 yil

taraqqiyotning rivojlanishiga nafaqat Osiyo, balki Yevropa mintaqalaridagi xalqlarning bugungi kundagi shu taraqqiyot bosqichlariga chiqishiga Vizantiyadagi barcha sohalarning o'rnini katta.

Bir so'z bilan aytganda, Vizantiya jahon taraqqiyotining uzilmas va uzluksiz qismi bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1Семенов.В.Ф. Урта асрлар тарихи. Педагогика институтлари учун.Т...»Уктувчи»,1973

2Salimov T.O'. Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda),Toshkent, "Universitet",2014 yil

3История Византии.т. 1-3. М., 1967

4Abduazimov A. Kamolov J. Jahon tarixi. Toshkent. 2023 yil.